

ADABIY ASAR – TIL HODISASI

Yozuvchi Ahmad A'zam bilan suhbat

1. Ahmad aka, o'zbek nasrining bugungi mavqei haqida gaplashsak. Yaxshi bilasiz, otgan asrning 90-yillarigacha kimdir biror qissa yozsa mashhur bo'lib ketar edi. Ne tongki, oshalarning ayrimlarinigina bugun yodga olamiz. Ikki yil burun Yozuvchilar uyushmasi yig'inida jonkuyar mutaxassislardan biri mustaqillik yillarida yuz yigirmadan ortiq roman chiqqanini ta'kidlab, ularning royxatini taqdim etdi, buning ustiga majlis qatnashchilariga shu yoriqda anketa savollariga javoblar yig'di. Tabiiyki, royxatdagi asarlarning aksariyatini adabiyotchilar ham, yozuvchilarning o'zlari ham o'qimagan bo'lib chiqdi. Hayronman, hozir o'qimaslik moda kasallikka aylanib qolmadimikan?

U paytlari... boshqa narsa ham bor edi – katta asar yozishga, e'lon qilishga unchamuncha odamning haddi sig'mas, qissani ham nasrning ravish-yonalishlarini yaxshi o'zlashtirgan, poetikasini his qila olganlar yozgan, bu ham avvalo muallifning malaka chiğiriğidan otib, jamoatchilikning yaxshi kutib olishiga shuuri etgani taqdirda e'lon qilinardi. Toğay Murod, Murod Muhammad Dost kabi u paytlari yosh adiblarning qissalari tili, badiiyati, poetikasi bilan yarq etib ko'zga tashlangan. Adabiyot oldida, Soz oldida mas'uliyat juda katta, keyin asarning har bir jumlasini, har bir soziga qaraydigan Vahob Ro'zimatov kabi qahri qattiq sinchilarining nazaridan qolish, bemaza yozibsani deb deb zahrini sohadigan Mahmud Sa'diy kabi tahrir pirlariga ro'para bo'lish doim kun tartibida turardi. Yoshlarning o'z adabiy davrasi hai yaxshigina hakam, yangi chiqqan asar avvalo shu davraning o'zida muhokamadan otardi, bemaza narsa bosilib qolsa, o'qigan odamga ham xuddi behurmatlikka uchragandek ta'sir qilar edi. Shuning uchun ham o'z va soz yozilgan aksariyat asarlar. Adabiy tilimiz martabasi ortgan, boshroq yozadigan yosh yozuvchilarning asari ham ishlov berilmay, puxta tahrirsiz chiqmas edi. Adabiy tilimizning katta rivoj bosqichi ham shu davrda kechdi. Ha, darvoqe, hozir bir nechta yozuvchilarimizning yozganlarini e'lon qilmayotganlari sababiham shunga kelib taqaladi- bugun tekin tahrir qilib beradigan zahmatkash “mardikor”lar zamoni otdi. Kop narsalar qanday yozilgan bo'lsa, shunday chiqib ham ketyapti. Buning bir yaxshi tomoni ham bor: sheriklikka sun'iy asar yaratilmaydi. U davrlarda, ochiq gap, ba'zi yozuvchilarimiz romanlari ham uning uustida nariyotdami, redaksiyadami etti bukilib ter to'kishi bilan qatorga kirardi. Qanday yozgan bo'lsa, shunday e'lon qilayotganlarning misi o'z-o'zidan chiqyapti, bularning

tili pala-partish, tozalanmagan, albatta bunaqa asarni qolgan olgan kitobxonning umuman kitobdan kongli qoladi.

Til mas'uliyatining yoqolit soz san'atiga yaqin ham kelmaydigan narsalarni urchitib yubordi. To'g'ri kelgan odam xayoliga kelgan narsani yozyapti, qolbola rivoyatlardan tortib qotirma romanlargacha. Ilonning nimaligini bilmagan bolakay chaqishiidan qorqmay ushlayveradi, tarix nima, unda haqiqatan nimalar kechga, odamlar qanday yashagan, ruhiyati qanday bo'lgan, qanaqa shevayu ohanglarda gaplashgan, buni oylab ham otirmay, bir manbani oqisa, shunga suyanib yoki "badiiy" ko'chirib, "borodurman-kelodurman" degan yasama "tarixiy" tilda jild-jild romanlar ham yozib tashlanyapti. Mayli, yozsinlar, shu yozganlari hujjat, manba asosida bolsa kerak, ularning ma'rifiy qimmatini ham bor, lekin tadqiqot desinlar, izlanishlar, taassurotlar desinlar, lekin roman deb janrning obro'sini tokmasinlar.

Yoshlar oqimaydi, deymiz, shunaqa narsalarni oqiymiz? O'zimizning ham saviyasi past narsalarga ko'zimiz nurini ketkizishdan boshqa yumushimiz yoqmi? Axir, oqiymiz narsani oqiymiz-da. Menga, ochiq gap, asarning boshlanishidan yarim sahifa, hattoki, birinchi jumlasini oqib ko'rish kifoya, tortsa – kalla tashlab oqiymay, yoqmasa, joyiga qoyi, qaytib qolimga olmayman. Til badiiyatini egallamay asar yozish –o'ziga nisbatan behurmatlik va kitob ahliga nisbatan ahloqsizlik. Ahloqsizlikni sokkandan kora, uni quloqni bekitib, eshitmagan ma'qul deb bilaman.

2. Albatta, odamning osha romanlarga birvarakay baho berishga jur'ati etmaydi (Adashmasam, osha majlisda osha "mutaxassis" tomonidan "nega Erkin A'zam roman yozmaydi?" degan xurmacha doq ham urilgan edi). Birinchidan, ularni oqish kerak, ikkinchidan vaqt va undan song hafsala ham zarur. Nazarimda, birgina Qozoqboy Yoldosh ularni muttasil oqib, erinmay fazilatlar topib maqola yozib yotibdi. Hech kim bahsga ham kirishmaydi. Biz talaba edik, Ahmad A'zam degan tanqidchi bot-bot adabiyot gazetasida eng shimarib katta olimlarga ham qorqmay tashlanib qolardi va haq gapini isbotlar edi.

Nega axir, bugungi 60 yoshlilar osha faollikdan bezib qolishdimi?

- Ayni kunlarda adabiy tanqidchiligimizda mezon bola oladigan fikrlar, etakchi tanqidchilarimiz yoq. Bevosita adabiy jarayonga ijobiy ta'sir otkazadigan fikr darqalarini nazarda tutyapman. M.Qoshjonov, O.Sharafiddinov singari salobatlari bilan qor tokib, adabiyot darovazasi kirmoqchi shunchaki havasmandlarni hayiqtirib turadigan ustozlarimiz otib ketdilar. Adabiy-tanqidiy tafakkur beega

www.ahmad-azam.com

qolgandek, uning maydoni ham nihoyatda torayib, ta'sir kuchi yoqolib, o'zi tanazzulga yuz tutdi O'zingizni yoshi otgan tanqidchi orniga qoyib ko'ring: bir umr bu borada mehnat qilgansiz, yozganlaringizni ilgari oquvchilar nazardan qoldirmagan, qaysi asarlarni tahlilga olgan bolsangiz, o'shalarni ham izlab topib mutolaa qilgan, bugun sizni ham, siz umr toyi tahlilu tadqiqot qilgan asarlarni ham oqimaydi. Zamonga moslashib yangi narsalar bozoriga tushishga esa oyo'gingiz tortmaydi. Nima qilasiz? Nima qilamiz? E-e, bu zamon qayoqqa qarab ketyapti, otgan ortacha yozuvchilarimiz mayli, lekin nimaga buyuklarimiz ham e'tibordan qolyapti, ha, hammasiga OAV, ko'cha matbuoti, Internet sababchi, adabiyotga esa g'arbdan modernizm balosi kirib kelyapti deb, yomonning kuchini yapaloqqa ko'rsatamiz; kuchimizni o'zimizga nisbatan yosh, lekin allaqachon ellikni qoralab, oldinga o'tishga odob saqlab turgan adiblarimiz yo shoirlarimiga ko'rsatamamiz, yangicha badiiy tafakkur o'zgarishlarini yot ta'sirlarga yo'yib, qani an'analarimiz sadoqat, qani buyuklarimiz xotirasini hu3rmatlash deb na'ra tortishga cho'g'lanamiz – befoyda, yoshlar g'adir-budur bo'lsa-da, o'zlari kashf qilgan yo'dan ketaveradi, otmishimizning chong qoyalarini darsliklarda tiklab qo'yan bo'lsak-da, ularga qaramaydi. Ha-ya, tortadigan na'ramiz ham ichimizda – kitob oqimagandan keyin otmish iztirobi bilan yozilgan maqolamizni ham oqimaydi-da. Keyin, on kun, bir oy otirib yozgan maqolamizga o'zi zor'ga kun ko'rayotgan gazeta hemiri ham bermaydi.

Damimizni ichimizga yutib otiraveramiz. Hayot esa ilgari ketib borayotir, adabiy jarayonda, istaymizmi, yo'qmi, otmishga tarmashgan irodamiz bilan hisoblashmay, botiniy o'zgarishlar kechayotir. Dagish ishini qilyapti, qir'g'oqning tagidagi qumlarni allaqachonlardan beri yuvib otyapti, yupqagina yuza turibdi xotiramizda, qurigan chinorlari bilan. O'zimizni hali ham royxatdagi shu chinorlar soyasida deb oylaymiz...

To'g'ri, vaqt otishi bilan adabiyot saralab, saralanib boraveradi, ancha-muncha asarlar eskirib, tasarrufdan chiqadi, ularning orniga yanada yangiroq, yanada tozaroq asarlar kirib keladi. Bu – muqarrar kechadigan ichki rivoj qonuniyati, busiz soz san'ati yashay olmaydi Lekin siz aytayotgan to'qsoninchi yillar boshida faqat sanoqli asarlar emas, adabiyotning yangilanish jarayonining o'zi tagdan buhronga uchradi, ayni paytda shu buhron tubidan adabiyotimiz kelajagi o'laroq yangicha badiiy tafakkur qoyalari o'sishga boshladi. Bu faqat shoro tuzumining patarot topishi bilan bo'g'liq emas. To'g'ri, yangi mustaqillik tuzumi, mustaqil davlatga chiqqandagi fikr erkinligi ayni badiiy tafakkurning eski mahsullaridan qoniqmay, unda ham o'zgarishlar qilish talabini qoydi. Bu tabiiy hol, lekin bozor

talablari, erkinlik havosi deb adabiyotni o'z holiga tashlab qo'yishda jamiyat o'zgarishi bilan birga o'zimiz "yaratgan" sabablar ham bor. Kitob tarqalishi, savdosi butkul izdan chiqib, badiiy adabiyotni tarqib etadigan matbuotning nomi ko'paygani holda tirajining tamom tushib ketgani ham bir omil.

Vakuum bosh turmaydi, professional baquvvat asarlar bilan o'zini to'ldira olmagan vakuum bozor orqali saviyasi past, adabiyot emas, biznesni ko'zlagan oldi-qochdi bejamalarni soriib oldi. Hozir kitob do'konlari shularga to'la.

Buning yanada o'zimizga, adabiy jamoatchilikka tegishli jihatlari bor. Yangilanish tarixi boshlanganiga yigirma yildan oshib ketdi, biz esa haligacha otgan ustozlar etagida yuribmiz. Yoshlar kitob o'qimaydi, hamma internetga yopishgan deymiz, lekin nimani o'qimayapti, nima yaxshi asarlardan yuz buriyapti kitobxon? Eskidan qolayotgan, eskirayotgan asarlarni yoshimdagilar ham o'qimaydi, chunki shoro zamonida yaratilgan asarlardan hidini bir chaqirimdan bilib qochamiz, yangilari esa yo yoq, yo ularga didimiz konikmayotir. Yoshlarga esa adabiyot darsliklaridagi shu eskilar ham yuqmaydi, o'zlariga to'g'ri keladigan yangilar juda kam. Nima o'qisin ular? Ochi'gi, shu savolni qo'yyapman-u, javobiga xuddi adabiyotimiz otmishiga tosh otayotgandek, qiynalyapman.

Albatta, yangi asar, yangicha tafakkur yoq erdan paydo bo'lmaydi, adabiyotda davomiylik bor, u – adabiy tilning ravnaqi shunday, bunda uzilish bo'lmaydi. Lekin A.Qodiriy asarlari yaratilganiga sakson-to'qson, A.Qahhor asarlari yaratilganiga ellik yildan oshiyapti, hozirgi shakllangan avlod yozuvchilari shu asarlardan til tarbiyasini olgan, lekin adabiy til chiqqan dovonida qotib turmaydi, o'sadi, ustozlarimio ham bir joyda qotib turmaydi-ku. Ustozlarmiz ham men kelgan chegeradan u yo'giga otmaysizlar degan o'git bermagan. To'gay Murodning xalqona suykumli, Murod Muhammad Dostning baland havoli, teran falsafaga boy, Erkin A'zamning har bir so'zi chertib olib yozilgan tili yaralib boshlaganiga ham o'ttiz qirq-yil bo'lyapti. Til tuy'gusi ona suti bilan, aql bilan bilan birga beriladi, keyin o'zgaradi, sayqal topadi, lekin ilk asarlari tilidan uncha uzoqqa ketmaydi yozuvchining tili. Demoqchimanki, adabiy tilimiz rivoji saksoninchi yillar oxirigacha keldi, keyin hayot tashvishlariga oralashdik, bozor tamoyili degan gaplar chiqdi, xullas, unga e'tibor o'ldi. Ana shundan keyin, siz aytgandek do'kon peshtaxtalarini o'z didini ayaydigan, o'zini hurmat qiladigan odamlar o'qimaydigan kitoblar ist ilo qildi.

Erkin A'zam nimaga yoshi oltmishdan oshib roman e'lon qildi? Haligi mutaxassis iddao qilgandek, oldinroq nimaga yozmadi? Nimaga biz havas qiladigan

iste'dodlarning bor-yo'gi bitta yo ikkita romani bor? Bu kuchi yetmaganidan emas, balki roman nimaligini, unga qanday til tajribasi zarurligini anglab, o'zini tayyor bilmaguncha q'oli bormaganidan. Erkin hozir ham yozib tashlayvermaydi, bunday yozuvchilar uchun yozish – Soz mas'uliyati, vijdon ishi. Hozir qarang, bularni ayrim ham deya olmaysan, q'osh jildlik, trilogiya, hatto tetralogiyalar chiqib ketyapti, ikki xatboshisini oqiysiz-da, qaytib q'olingizga olmaysiz – tili yozuvchining tili emas, tasvir yoq, dialog yoq, poetika yoq, badiiyatning asos xossasi - tili yoq...

Kitob do'konlarida savlat to'kib turgan muhtasham bezakli yostiqlarni korib odam hayiqasan: e-e, bunga ozmuncha mehnat sarf bo'lganmi, qo'goziyu boshqa xarajatini qoyavering, qancha umr sarf bo'lyapti; mayli deysan, katta qismi yaxshi niyatda qilinyapti-ku, ertami-bir kun bu oqim ham tiniqlashib, ichishga yaraydigan bo'lib qolar, deb tilingni tiyasan.

Oltmishni urib qoyganlarning faol emasligi... yosh bilan, oilaviy, turmush tashvishlari kopayishiiga, moddiy manfaat yoqligiga bo'g'liqdir. Lekin adabiyotni kuzatib-oqib borish sonmagan bo'lsa kerak deyman. Men ko'p gaplashadiganlardan Ibrohim Haqqul, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad doim oqib borishi misolida tengqurlarimizdan kopchiligigi adabiy jarayonga befarq emas degan xulosaga kelaman. Shoir Xurshid Davronni gapirmayman, uning faoligini hamma biladi, tarixziy siymolarimiz haqida qator nasriy asarlar, tadqiqotlar yaratish bilan bir qatorda internetda har kuni turkiy adabiyotlar, tillar, ma'naviyat haqida onlab(!) kitoblar e'lon qiladi, bahslarga aralashadi, o'z fikrlarini muntazam bildirib boradi. Endi, bari, kopchilikning buncha jimib ketishini ma'qul kormayman. Tengqurlarimning pastga tushib, tortishuv-olishuvlarda qatnashmasa ham, torda qor to'kib otirishlarini istar edim, chunki ularning borligi majlis ahliga adabiyotning yukini har kim elkalab keta olmasligini eslatib turadi. Qozoqboy akaga kelsak, u kishi bizga tengdosh, demak qatorimizda faol munaqqidimiz ham bor, omon bo'lsinlar, lekin boshqalari... barmoq bilan sanashga ham yetmaydimi deyman. Endi bugungi kunda tanqid bilan shu'gullanishni hech kinga oson tuib bo'lmaydi. Bu ish juda katta zahmat va ra'g'batni talab qiladi. Lekin, umid shulki, yoshlar etishib kelyapti, nasrning yillik muhokamasida kordim, ularning chiqishlarida umuman asar haqida umumiy gapirish yoqroq, muayyan konsepsiya bilan yondashish, aniq fikrlash bor. Shundoq, keyingi avlodlarning o'z tanqidchilari bor, lekin menga ular haddan ortiq boadabdek, ustozlar qoshida tortinib turadigandek tuyuldi.

3. *“Asqartoğ tomonlarda” degan qissangiz bosilayotganda men “Yoshlik” jurnalining kichik xodimi edim. Ochiği, bu qissada biz konikib qolgan silliq mavhumot va mavhumday tuyuluvchi ziddiyatlarga qarama-qarshi o‘laroq favqulodda reallikni korganman. O‘Usmonovning “Girdob” romanidagi domlalar bilan “Asqartoğ...”dagi domlarning, garchi zamon o‘sha-o‘sha bo‘lgani bilan, farqi ancha edi-da. Bu bilan Sizga pishang berib maqtamoqchi emasman-u, har qalay vaqti-zamonida o‘zingiz aytgan bir gap miyamda muhrlanib qolgan: “Proza odam odam bilan bemalol, ochilib suhbatlashgani singari tabiiy bo‘lishi kerak”. Shundan beri qarayman, kuzataman, o‘qiyman. (YOzganlaringizning deyarli barini o‘qigan chiqarman). “El qatori” ancha jimib ketdingiz ham. Keyin: “Tiqin”, “Hali hayot bor”, “Tugmachagul”, “Dutor bilan tanbur”, “O‘zi uylanmagan sovchi”, “Royo yohud Gulistonga safar””, (shu romanni andak istisno qilganda) tabiiy maromni koraman. Oylab qolamanki, bu boshqalarga orgatib yo tatbiq qilib bo‘lmaydigan Ahmad A‘zamning o‘zigagina xos ijodiy prinsipi bolsa kerak...*

- Adabiyot, so‘z san‘ati haqida gapirib turganda, odamning birdan o‘ziga o‘tishi juda noqulay. Saksoninchi yillar jahon adabiyotiga ayniqsa ruju qo‘ygan yillarim. Bitta men emas, qirq to‘qqizinchi yil avlodi deymiz, bizga dunyoning sara asarlarini mutolaa qilish, organish bir urf edi. Men rus tilini “tvoya-moya” darajasida bilgan holimda, o‘qishni harbiyda birdaniga D.J.Selinjerning “Nad propast’yu vo rji” asaridan boshlaganman. Kutubxonada bor ekan, so‘zni so‘zga to‘qishtirib, yigirma kunlar bosim otirib o‘qidim va shu bilan rus tilidagi go‘zal tarjimalar bilan tanishishga yo‘l ochib oldim. Xemingueyning bir suhbatini o‘qib, u o‘qigan yozuvchilar asarlarini qidirishga tushdim, adabiyotshunos bo‘laman deganim uchun yozuvchilarning o‘z ijodlari, adabiyot haqidagi suhbatlari, ular haqidagi tadqiqotlarni organib, xayolimda dunyoning sara yozuvchilari royxatini tuzib oldim. Shu bilan asta-sekin jahon badiiy tafakkur maydonini o‘z biligimcha kezishga tushdim. Hozir ham Yasunari Kavabata, Xorxe Luis Borxes, Jan Pol Sartr, Ğulomhusayn Sayidiy (ruschada “Saedi”), Maks Frish asarlarini qayta mutolaa qilib turaman. Tili ohorli-toza asarlarni sevaman, tabiiyki, “Qissasi Rabĝoziy”, “Boburnoma” tili qanaqadir entiktiradigan hayajonlarga tortib ketadi, rostdan! “O‘tkan kunlar”, “O‘tmishdan ertaklar”. “Bolalik”, “Shum bola” yoshligimdan tiliga mahliyo bo‘lganim asarlar. Tili uncha toza bo‘lmagan asarlarni o‘qiy olmayman, jumladan qiyomiga yetkizmay qilingan tarjimalarni ham. Demoqchimanki, meni tanqidchilikni tashlab, yozuvchi bo‘lishga undagan omil shu, Dunyoning sara asarlaridan juda ko‘pini o‘qib yurdim, rus tiliga qilingan shu tarjimalar orqali shakllandim. Yozuvchi bo‘lib, u-bu narsalarga erishgan bo‘lsam, ana shu tarjimalar va o‘z adabiyotimizdan terib-tergilab olib o‘qishim tufayli. Va

bunda, albatta Samarqand universitetida Navoiy bobomizdan chuqur darslar olganimizning ham ulushi juda katta. Qanaqa yozuvchi ekanimga o'zim bir narsa deyishim qiyin, bahoni kitobxon beradi. Men qanaqa yozuvchi bo'lishga intilganimni gapiryapman. Shu o'qish, organishlar maromida o'quvchi, kitobxonni hurmatlab, unga aql orgatavermaslik, hayot haqida uning o'zi ham biladigan xulosalarni tiqishtirmaslik, tendensiyayu mafkuradan qochish, xolis turib, tasvirdan fikr chiqarib olishni o'quvchining o'ziga qoldirib yozish yo'lini tanlashga harakat qildim. Ha, siz aytganday, odam bilan odam ochilib gaplashgandek tasvirlashni. Buning tagida, albatta, tasvirni xuddi rasmga tushirgandek o'zini berish nazarda tutilmaydi, detal, tafsilot, voqea ham o'qigan odamda boshqa ta'sirotlar uygotishi lozim. Yozuvchi xolis qoladi, o'zini bilmaslikka oladi, ba'zan anoyi tutadi, tasvirlari keraksiz ham tuyuladi, lekin til ohanglari bilan tortib turadi va shu ohanglar kitobxon konglida aks-sado bo'lib, fikr uygotadi. Orzuim shunaqa chiroyli. Qani edi shunday yoza olsam deyman.

Bir maromda, uzmay yoza olmaganman, bir ishda ishlagan paytlarim yozmaganman, shuning uchun kop joyda ikki yilga borib-bormay, boshab ketaverganman. Faqat TVda on bir yildan oshiqroq ishladim, shu payti ham yozmadim, orada muharririyat almashganda uchta hikoya yozib qolganim istisno qilsa. "Royo" gacha bir maromda kelgan bolsam, osha o'zim ekanman. "Royo"ni dardda yotib, dard bilan yozdim. Ishqilib tugatay degan xavotir, M.M.Dost aytganday, "vasvasa bilan" oxiriga yetkazdim. Hammasi o'zining tabiiy maromida, yutuğu kamchiliklari bilan birga bolsin deb, odatimga xilof ravishda tiliga ham qayta teginmadim. Yana yozishni moljal qilgan, boshlab qoyilgan narsalarim bor, ularga ham vaqt qolishi, kuch yetishi kerak edi. Xudo xohlasa, siz aytgan, menga xos ijodiy prinsip shu urinishlarimda korinsa kerak. Bilmayman yana nima deyishni, kuch bersa, yozaveray-chi; yozishning ozidan ham kattroq gap yoq men uchun.

4. Yosh yozuvchilardan biri bundan rosa 15 yil burun "bu yoğiga adabiyot elitarlashadi" degan fikr aytuvdi. Ozi-ku yozuvchi oshandan buyon tamoman jim. Lekin har zamonda yon-verimga qarab, men g'aflatdaligimda adabiyot jonivor "elitarlashib" qolmadimikin deyman... Siz ham shunaqa fikrga borganmisiz?..

- Bu savolga javabni misoldan boshlasam. Sakson yettinchi yilmidi, yozuvchilar uyushmasiga Parijdan "Aksion poetik" degan jurnal vakillari keldi. Ular bilan tanishdik, suhbatlashdik. Gapdan gap chiqib, qaysimizdir bizda Erkin Vohidov. Abudda Oripovning she'riy toplamlari sakson-yuz ming nusxada chop etilishini aytgan edi, fransuzlar angrayib qoldi. "Men sizlarda qancha nusxada bosiladi?"

deb qiziqdim, e-e, bularni toza urib ketgan ekan-ku degan ma'noda. Ulardan biri “Yuz-ikki yuz nusxada. Buni ham shoirning ozi chop qildiradi, yoru do'stlariga tarqatadi, o'tsa yana chiqaradi. Katta tiraj besh yuzga boradi-da”, dedi. Men ajablanib, “Dunyoga mashhur shoirlaringiz ham shu ahvoldami?”, deb soradim. “Ha, men buyuklarni aytyapman”, dedi. “She'riyat bunday bo'lsa, prozaning ahvoli qanday? Masalan, Fransiyada yashayotgan Nobel mukofoti laureati Semuel Bekket asarlari qanchadan bosiladi”, deb sorasam, “Bekketni uni tushungan odamlargina o'qiydi. Bular ham ko'p emas. Bekket teatri ham bor, unga ellik-oltmish xos odamlargina tushadi” dedi. Men Chingiz Aytmatovni soradim, “Uning asarlari katta tirajlarda bosilar ekan-ku sizlarda ham?” degan savolim, “Ha, Aytmatov katta tirajda bosiladi. Lekin u bestseller”, deb gapni londa qildi.

Uzun misol bo'ldi, lekin nima demoqchilimni bilyapsiz. Kitobxon deganimiz bir xil yuksak didli odamlardan tarkib topmaydi, o'qiyotgan omma qiziqishi, didi, bilimi, saviyasi, dunyoqarashi turli darajada bo'lgan qatlamlardan iborat. Butun dunyo kitobxonni shunday. Do'kon peshtaxtalarini asar emas asarlar bosib ketdi deymiz, demak, shuncha narsaga talab bor, uni o'qiyotgan omma bor-da. Nashriyotlar ham o'tmaydigan molini savdogaga qoymaydi. Badiiyati teran asarlarni didi teran kitobxonlar o'qiydi, bu qatlam uncha qalin emas, ozchilikni tashkil qiladi, kelib chiqadiki, adabiyot elitarlashyapti. Dunyoning ilg'or adabiyotlari shunday: har bir kitobxon qatlamining o'ziga yarasha mahsullari bor, lekin, lekin, keling, shunaqa deylik, yuksak adabiyotni bozor adabiyotidan past kormaydi, ayni paytda bozor adabiyotini ham yuksakka kotarmaydi. Hammasi o'zining o'rnida, o'z maromi bilan rivojlanadi. Xususan o'zimizning sharoitga kelsak, adabiyotning bachki novdalari g'ovlab ketishi bor, lekin bu shoxlar mangu kokarib turmaydi. Elitar adabiyot umuman adabiy jarayonni oziqlantirib, bachki novdalarni qaychilar turadi bari bir.

5. Adabiyot , xususan, nasrning o'zini olganimizda ham had-hududsiz bir makon. Umrbod o'quvchi bo'lib yashab uning sarhadiga etish qiyin. Faqat mashhurlarning asarlarini o'qishga ulgurish ham mahol. Bizda klassik romanchilik an'analari bor. Hozirgi kundagi proza bari bir kechagidan farq qiladi. Bu ham tabiiy. Sababi bugungi odam bugungi shart-sharoitga moslashib yashayapti va o'z-o'zidan fikr-oyi ham, muammosi ham kechaginikidan farq qiladi. Kecha sokin va turgun bir kechmishda yashayotganimizda To'gay Murod xalqona ohang va dardlar bilan qissalar yozganida sevinib, sevib o'qishga tushib ketganmiz. Bugun, masalan, shu kayfiyatdagi yozuvchi chiqishiga va song odamlar uning asarlarini yopirilib o'qishiga kishining kozi etmaydi. Pafos degani ham ayrim zamonlarda kotarilib,

boshqa vaqtda tushib yoʻqolib ketadi shekillida. Umuman olganda bugungi oʻzbek nasrining ornini qanday baholar edingiz?

- Nima boʻlganda ham nasrning oʻzi ham, ahamiyati ham yoʻqolmaydi. Oʻzgarishlar tubdan yo ochiq kechishi mumkin, lekin millatning ma'naviy ehtiyoji bir-ikki davr yo navbatdagi mafkura bilan qonib qolmaydii. Badiiy tafakkur harakati azaliy-mangu jarayon. U hozir sustlashgandek, uning gurkirab ketishiga havo yetmayotgandek tuyular, lekin tub oqimlar harakatdan toxtamay, oʻz ishini qilib, yangi iste'dodlarni yetishtirib yotibdi. Men, masalan, oʻzimga nisbatan yosh, lekin allaqachon katta adib boʻlib tanilgan Nazar Eshonqul, Solbir Oʻnar, Isajon Sulton, Uluĝbek Hamdam kabilarni nazarda tutyapman. Bir davr she'riyatini badiiy tafakkurdan ayricha olmaslik kerak, bizda keyingi yillari, mustaqillik zamonida she'riyat yangicha talqinlari bilan oldinga ham oʻtdi, uning Faxriyor, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Roʻzimuhammad, Aziz Said, Xayrullo Fayz singari ustunlari borki, bular oʻzlaridan keyingilarining erkin fikrlashiga keng yoʻl ochib beryapti, juda yoshlar orasida unda-bunda chiqib, oʻzlarining yangicha fikrlash tarzini namoyish etayotgalari bor, men shularga qarab, jarayonga nekbin yondashishga urinaman. Hozir bugungi oʻzbek nasriga bir qarashda aniq tashxis boʻladigan baho berish mushkul masala, Izlanishlardarning juĝrofiyasi juda ken, qopi yuza qatlamda, hali shakllanmagan, aytganimdek, tub oqimlar kechyapti, hali uncha yuzaga chiqmagan, keyin, adabiyotimiz, jumladan nasr tarĝiboti shu reklama zamonida oʻgay soha boʻlib kelyapti. Hozircha, ertangi nasr ham aniq bilgi berayotgani yoʻq, lekin tagdan qalqib turibdi, yorib chiqib qolar deb umid qilamiz. Zero, har qanday sharoitda ham adabiyot rivojdan toxtamaydi. Yangilanish ruhi, yangilanish ehtiyoji bugungi oʻzbek nasrining xos alomati boʻlsa kerak.

6. Taniqli yozuvchi Murod Muhammad Dost shoir Faxriyor bilan suhbatida ("Yoshlik", 2012 y. 4-son) yaponiyalik X.Murokami, braziliyalik P.Koelyolarni puflab shishirilgan "daho"lar deb ataydi. Toĝrimikan? Shuningdek, "Urush va tinchlik", "Aka-uka Karamazovlar", "Master va Margarita", "Arsen'evlar hayoti", "Doktor Jivago", hatto Aytmatovning ayrim romanlarini ham "orqasi keng" ba'zi ziyolilargina oʻqiyapti desak boʻladi. Oʻzi adabiyotda qanday asarlar yashab qoladi?

Keyingi oʻn besh yillar mobaynida ish, siyosat va turmush tashvishlari bilan boʻlib, ilgarigidek koʻp oʻqiy olmaganman. Jarayondan uzoqlashdim, yoshlikdagi ishonch ketdi, hakamlilik qilishga haddim siĝmaydi. Keyin, rus tilidan boshqa xorijiy tillarni bilmayman, binobarin, chet adabiyotni asliyatida oʻqishim imkoni yoʻq. Men ham koʻp qatori jahon adabiyoti namunalarini rus tili orqali, ruslarning tanlovida, ular

tavsiya qilganlarini o'qiyman. Masalan, Murakamini ham, Koelyoni ham mutolaa qilganman. Kafkani, Sartrni, Borxesni sevib o'qigan odamda kotar-kotar bo'lgan bu yozuvchilar uncha hayrat uygotmaydi. Masalan, bularning hech birini Kamyu darajasiga qoymayman. Pamuk asarlari ham menga xalqaro Nobel mukofoti oladigan darajada tuyulmadi. Siz tilga olgan asarlardan Tolstoy va Dostoevskiy romanlarini bahodan baland turishini ta'kidlashni istar edim, Ch.Aytmatiov asarlari esa hali vaqt, zamon sinovida.

Hozirgilaridan qanday asarlar yashab qoladi, degan savolning javobi kelajak kitobxoniga oydin bo'ladi. Har holda, achchiq haqiqat, shakkoklik emas bu, ko'p asarlarimiz tarix chig'irigidan o'tmaydi. Kimdir yo kimlarningdir xohish irodasi bilan emas, zamon o'zgarishi, mafkura – fikrlashimiz yangilanishi bilan qancha asarlarimiz otmish mulkiga aylandi, bu jarayon hali davom etyapti, adabiyot ehtimol shafqatsizlarcha o'zini tozalayapti, bizning yozganlarimizdan qanchasi bir kuni otmish mulki bo'lib qoladi, bu - boshdan doppini olib, xotirjam oylab koradigan masala.

7. Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi komagida adabiyotimizning ko'zga ko'ringan asarlarini ingliz, ispan, nemis, rus tillariga tarjima qilish ishlari boshlanyapti. O'zbek adabiyotining qaysi namunalari dunyo miqyosida bizning yuzimizni yoruq qiladi deb hisoblaysiz?

- E-e, shu savolning javobiga qiynalaman. Gap o'zing kimsan degan e'tirozga ropara kelishimda ham emas. Adabiy tanqid bilan shugullanmay qo'yganim boisi shunda. Dunyo adabiyotining eng zor asarlarini o'qiyverib, o'zimizga cho'gishtirib ko'ra boshlaganda, ochi'gi, ayni shu yangilanishni "urish" emas, qo'llab- quvvatlash kerakligini anglab, "otashin" kurashning befoydaligiga aqlim yetdi. Chunki, shoro davrida shuncha dovrug' qozongan adiblarimiz bo'lishiga qaramay, badiiy tafakkurda yosh, naqironligimizcha qolganmiz. Adabiy tilimiz hali dovonlar oshishi kerak. Buni necho'gli zarurligini badiiyati, dunyobinligi biznikidan tubdan farq qiladigan, tafakkur tarzi o'zgacha asarlarni o'z tilimizga o'girgan tarjimonlar juda yaxshi biladi. Taglama orqali bizdan qilingan tarjimalarda g'alati holat paydo bo'ladi, tili, badiiyoti g'arib, lekin voqeasi, syujeti chet el kitobxonini uchun qiziq tuyuladigan xoshashyodan binoyidek asar yaratiladi. Yaxshi chetga chiqqan yaxshi asarlarimizning o'zi ham juda kam, bir millat adabiyotini tanish uchun tola tasavvur bermaydi. Lekin o'zim o'qib kelayotgan chet el yozuvchilari asarlariga xayolan qiyoslasam, bizdan uni tarjima qilsa bo'ladi, bunisi bo'lmaydi, degan gaplarni aytishga, ochi'gi ikkilanaman, gapni bemalol qo'yib yuborishga korpamiz kaltalik qilmasmikan deyman. Chobir otlar poygasidan voz kechib, o'zimizga qaytaylik,

aslimizni tiklaylik, egamen mamlakat, mustaqil millatimiz, tilimiz davlat tili, o'zimizga qoldi deb, uni buncha toptamaylik, rivojlantiraylik. Avval adabiy uyni sarishta qilib olaylik, dunyoga chiqish qochmaydi va, keyin, u qadar darajali masala emas. Yuzimiz birinchi galda o'z kitobxonimiz oldida yoruğ bo'lsin. Adabiyot, adabiy asar birinchi galda til hodisasi, u milliy tilda yaratiladi, uning milliy jarangi bo'lsa, chetdagilar eshitadi, yirtiq karnayu teshik childirma bilan dunyoga chiqishni oylash.. hay, bilmadim.

Ijod fondi g'ayrat qilayotgan ekanmi, omadini bersin! Lekin bu yoqdagi emas, u yoqdagi konyukturaga qarashi kerak. O'zimiz oshna-o'gaynigarchilik qilib tuzgan rasmiy royxat boyicha qilgan ishimiz u yoqda izziz yoqolib ketishi mumkin.

Hay, shu gaplar-da. Jurnaldagi xodimlarga g'ayrat, Qozoqboy aka topib ishlatayotgan ibora bilan aytsak, o'qirmanlarlariga sabr-toqat tilayman! Ha, bir gap aytmoqchiman, yaxshi asar uni o'qiydigan yaxshi kitobxon bo'lsagina, uni ko'zlab yoziladi, binobarin, kitobxonning asar yaralashida hissasi katta. Bu uchun ham uning tanglayi yaxshi kitoblar bilan kotarilgan bo'lishi kerak.

Suhbatdosh Sobir Onar

Matn "Yoshlik" jurnalining 2012 yil 6-sonidan olindi.